

## CHET EL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARYALARI

**Baxtiyorova Ferangiz Murodali qizi**  
*Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti*  
*5.2 PSIA guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Shaxsni o'rganish psixologiyada eng muhim xususiyatlardan biri bo'lganligi sababli bu maqolada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga turli xil olimlarning ilmiy qarashlari muayyan guruhga ajratilgan va ularning mohiyati ochib berilgan va shaxsni o'rganishda turli xil metod va usullardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar.** Shaxs, individ, individuallik, ontogenet, filogenet, ehtiyoj, motiv, faoliyat, frustiratsiya.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to'g'risida xilma xil nazaryalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turli xil pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashuvga egadirlar. Biogenetik nazariya – negizida yetilish bosh omili sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga(aniqlovchilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi. Taraqqiyot jarayonining o'zi biologik yetilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va Gekkellar kashf qilishgan, biogenetik qonuniyat fanining taraqqiyoti nazariyani tashkil qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Jumladan, biologik qonunga ko'ra shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenet) butun insoniyatni tarixiy taraqqiyotining (filogenet) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya edi. Nemis psixologi Shtern fikricha chaqaloq hali u odam emas, balki sutemizuvchi hayvondir, u olti oyligidan oshgach psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarida ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o'rta asr kishilar ongida va nihoyat yetukli davrdagina u hozirgi zamon kishilarning madaniy darajasiga erishadi. Biogenetik nazaryaning yirik namoyondalaridan biri bo'lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb "rekapitulatsiya qonuni" ni (filogenetning ontogenetda qisqacha takrorlanishi) deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenetning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqiniga binoan go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarishdan boshqa narsa emas. Bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan

ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smiroldi davridan iborat bo'lib yovvoyilikning oxirgi va svilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hammohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilish (12-13) boshlanib to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25) davom etib u romantizmga ekvivalentdir. Xollning talqiniga qaraganda bu davrlar "bo'ron va tazyiqlar" ichki va tashqi nizolar (kofilik) dan iborat bo'lib ularning kechishi davomida odamda individuallik tuyg'usi vujudga keladi. Shaxs nazaryasi o'z davrida bir talay tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o'taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlashi ham mumkin emas. Biogenetik nazaryaning boshqa turi "konstitutsion psixologiyasi" (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan, E.Krechmer shaxs psixologiyasi tipologiyasi negizida bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzulishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qilinadi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshida sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his tuyg'usi o'ta barqaror) ikkinchi uchida schizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminni u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik, tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik, ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari) bo'ladi degan xulosa chiqaradi. Biogenetik nazaryaning namoyondalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologic modeliga chamalab ish ko'radir, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish o'zaro o'r'in almashib turadi, degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning talimotiga binoan shaxsnинг barcha xatti harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa birinchi navbatda, u jinsiy maylga libidoga bog'liqdir. Bunga o'xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi. 19-asrning ikkinchi yarmida, psixologiya alohida fan sifatida ajralib turganda, uning asosiy maqsadi labola sharoitida introspeksiya usuli bilan inson ruhiyatining asosiy elementlarini ochib berish edi. O'sha paytda V.Vuntning birinchi labolatoryasi shu yo'nalishda ishlagan. SHuning uchun odamlarni o'rganishga tubdan boshqacha yondashuvning paydo bo'lishi hayratlanarli tasir ko'rsatadi. Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiyat nazaryasi insonni aqlli mavjudot va uning xatti harakatlaridan xabardor emas, balki kelib chiqishi boshqa, kengroq aqliy sohada ongsiz bo'lgan abadiy to'qnashuvda bo'lgan mavjudot sifatida taqdim etdi. Freyd birinchi bo'lib psixikani murosasiz instinctlar, aql va ong o'rtasidagi jang maydoni sifatida tavsiflanadi. Uning psixoanalitik nazaryasi psixodinamik yondashuvning namunasi bo'lib xizmat qiladi. Uning nazaryasidagi dinamika tushunchasi insonning xulq atvori to'liq oldindan belgilab qo'yilganligini va ongsiz aqliy jarayonlar inson xatti harakatlarini tartibga solishda kata ahamiyatga ega

ekanligini anglatadi. Biologik nazaryaga qarama qarshi bo'lgan nazarya sotsiogenetik nazarya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzulishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushintiriladi. Ijtimoiylashuv nazaryasiga ko'ra inson biologic tur sifatida tug'ulib, hayotning ijtimoiy shart sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy yevropaning eng muhim nufuzli nazaryalaridan biri bu roller nazaryasidir. Ushbu nazaryaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq huquq) deb nomlangan xatti harakatning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq atvor xususiyatlarida o'zgalar bilan munosabat muloqot o'rnatishda sezilarli iz qoldirdi. AQSHda keng tarqalgan nazaryalardan yana biri bu individual tajriba va bilmlarni egallah (mustaqil o'zlashtirish nazaryasidir. Mazkur nazaryaga binoan shaxsning hayoti va uning vogelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallah, bilmlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzlusiz ravishda ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazaryaning tarafdorlari E.Torndayk va B.Skinnerlar hisoblanadi. K. Levin tomonidan tavsiya qilingan "fazoviy zarurat maydon" nazaryasidir" psixologiya fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazaryasiga ko'ra individning xulqi psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsadlar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Psixologiyada psixogenetik yondashuv ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qiymatini kansitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblsydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishni ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi. Psixologyaning irrasional(aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emotsiya mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazaryaning yirik namoyondalarida biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta'kidlaydi. Yuqorida taxlil qilingan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgalar uchun yopiq yoki maxsus muhit xususiyatlaridan krlib chiqqan holda tushuntiradi, bu o'rinda odam xohlaydimi yoki yo'qmi bundan qatiy nazar mazkur sharoitga moslashmog'i zarur degan aqidaga amal qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. F.I.Xaydarov va N.I. Xalilova Umumiy psixologiya T. 2009.
2. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002.
3. Бодалев А.А Психология о личности. М.ИЗД- во МГУ 1988.
4. Karimova V.M. Psixologiya T-2002.
5. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T- 2002.